

O‘TKIR HOSHIMOVNING “URUSHNING SO‘NGGI QURBONI” ASARINI HOZIRGI
DAVR BILAN MOSLASHISHI

Kuchkorova Zarina Ikromjon Qizi

Samarqand davlat universiteti Urgut filiali

Pedagogika va tillarni o‘qitish fakulteti

Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi 1 – bosqich 103– guruhi talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15491901>

Annatsiya. Ushbu maqolada O‘tkir Hoshimov serqirra ijodkor, taniqli davlat arbobi, roman va qissalar muallifi hisoblanadi. Uning asarlarida hayotiy bo‘lgan masalalar va urush vaqtida bo‘lgan barcha qiyinchiliklar tasvirlangan. “Urushning so‘nggi qurboni” bu asarda ham urush vaqtida odamlarning qanday qiyinchilik ko‘rgani, nimalar yetishmasligi ochiq tasvirlab berilgan. Hozirgi kun bilan bog‘lasak, hozirda ham zo‘ravonliklar, tahdidlar davom etmoqda. Asar bizni tinchlikka undovchi kuch desak aslo mubolag‘a bo‘lmaydi.

Kalit so‘zlar: Shoikrom, Shone‘mat, Xadicha, Umri xola, montyor, qo‘y suti.

Аннотация. В данной статье Откир Хошимов представлен как многогранный творческий человек, известный государственный деятель, автор романов и рассказов. В его произведениях изображены жизненные проблемы и все трудности, с которыми сталкивались люди во время войны. В произведении "Последняя жертва войны" также показаны страдания людей, их нехватка в чем-либо, тоска и муки. Если провести параллели с современностью, то можно увидеть, что насилие и угрозы продолжают существовать и сегодня. Это произведение можно считать мощным призывом к миру, и в этом нет преувеличения.

Ключевые слова: Шоикром, Шонемат, Хадича, Умри хола, монтажёр, молоко.

Abstract. In this article, O'tkir Hoshimov is presented as a versatile creative individual, a prominent public figure, and the author of novels and short stories. In his works, he depicts life issues and all the difficulties people faced during the war. In the work "The Last Victim of the War," the struggles of people, their lack of resources, longing, and suffering are portrayed. If we relate this to the present day, we can see that violence and threats continue to exist. This work can be seen as a powerful call for peace, and there is no exaggeration in this.

Keywords: Shoikrom, Shonemat, Khadicha, Umri khola, editor, milk.

Kirish.

“Urushni so‘nggi qurboni” asarida bir kishining hayoti emas, balki butun jamiyatning hayoti tasvirlangan, ularning azob chekkani qiyinchilik ko‘rganlari, ularning ezgulikka va tinchlikka umid bog‘lagani aks ettiriladi. Har bir insonning tinchlikka intilish harakati va bu qora kunlardan, sog‘inch azobidan qutilish maqsadida harakat qilishgan. O‘tkir Hoshimovning bu asarini hozirgi kun bilan bog‘lasak, insonning gumanistik qadriyatlarini adolatli izlanishlar tarixiy xotiralarni saqlaydi. Bu asarda bugungi kunning siyosiy, ijtimoiy va madaniy holatlarini tahlil qilishga imkon beradi.

Muhokama qismi

“Urushning so‘nggi qurboni” asari nafaqat tarixiy voqealarga asoslangan hikoya, balki insoniy fojiasi, adolatsizlik va falsafiy o‘ylar bilan chuqur aks ettirilgan.

Hikoyada tasvirlangan urush fojiasi – bu butun insoniyatning umumiy fojiasi hisoblanadi.

Bu asardagi qahramonlar taqdirida ezgulik va zulm, umid va umidsizlik, kurash va taslim bo‘lish kabi qarama - qarshiliklar ham mavjud. Asar qahramonlari orqali oldingi va keyingi davrlar xalqlarining hayoti, sabr - toqati, ma'naviy kuchi diniy e'tiqodi ishonchli tasvirlangan. Hozirgi kunda ham dunyoning turli hududlarida urushlar adolatsizlik va inson huquqlarining buzilishi davom etmoqda. Hozir bizni o'z tariximizdan saboq olishga, adolat, kenglik va tinchlik yo'lida yashashga undaydi. "Urushning so'nggi qurboni" hikoyada obrazlar portreti ham o'ziga xosdir. "Urushning so'nggi qurboni" hikoyasiga o'xshamas xarakterli qahramonlardan tashkil topgan. Barcha obrazlarning o'z tashvishlari, o'y-fikrlari, qiyinchiliklari mavjud. Lekin, bu insonlarni barchasini g'am-qayg'ulari ildizida urush yotadi. Baxtdan, tabassum qilishdan to'xtamaydigan yuzlarga, qaytib kulishiga izn bermagan, bir kunda qora sochlarni oqartirgan-urush. Bu hikoya qahramonlari ham urush bo'lishini va guldek oilalariga putur yetishini hech o'ylab ko'rishmagan. Asar boshlanishi ham asarning voqealar rivoji qanday bo'lishi haqida bir oz ma'lumot berilgan. Asarning boshidayoq salbiy holatlar tasvirlangan, barcha narsalar asardagi voqealar rivoji ijobiy ketmasligiga ishora qilardi.

Asarning asosiy g'oyalari:

1. Adolat va gumanizm: asar muallifi urush va zo'ravonlikka qarshi insoniylikni, mehr oqibatni, adolatni ifodalaydi

2. Urushning daxshati: Urush orqali muallif urush faqat qurolli tuqnashuv emas, balki insoniyat ruhining yemirilishi ekanligini ko'rsatadi.

3. Diniy sabr va iroda: Asar qahramonlari diniy sabr va iymoni bilan zulimga qarshi kurashadi. Bu ularning ichki kuchi va bardoshini ko'rsatadi. Asardagi bosh qahramonlar - Shoikrom, Shone'mat, Umri xola va Xadicha. Shoikrom oilaning katta farzand bo'ladi. Shone'mat bo'lsa oilaning kichik farzandi ya'ni Shoikromning ukasi bo'ladi. Xadicha Shoikromning xotini, Umri xola esa Shoikromning onasi bo'ladi. Shoikromning otasi erta olamdan ko'z yumgan va Shone'matni Shoikrom va Umri xola ikkasi katta qilishgan. Urush boshlanganda barcha oiladan erkaklarni urushga olib ketishgan. Lekin bu oiladan hech kim urushga bormagan. Shoikromni to'qimachilik kombinatida montyor yetishmasligi sababli olib qolishdi. Shone'mat bo'lsa sil kasaliga chalinganligi sababli urushga jo'natilmadi. Qarangki, urush shuncha uzoqda bo'lsa ham uning sovug'i bu oilani ham chetlab o'tmagan. Qimmatchilik, qahatchilik sababli xalq och qoldi o'g'rilar ko'paydi. Hattoki, odam o'ldirib uyidagi narsalarini olib chiqib ketadigan odamlar ham paydo bo'ldi. Bu urush qanchadan qancha odamlarni yer qariga olib ketdi va yana qanchadan qancha odamlarni iymonini o'ldirdi. Urush paytida har bir inson o'zini o'ylaganligini shu asar orqali yaqqol ko'ramiz. Shunchalik darajada insonlar imkonsiz qolganki, o'z yaqinlaridan yuz o'girish darjasiga ham borishgan. Bu juda achinarli holat, lekin bu ishlar uchun u insonlar ham aybdor emas. Barchasiga urush aybdor-Urush Urush!!!

Noming o'chsin jahonda,
Hamon bitmas sen solgan alam.
Sen tufayli ko'p xonadonda
Ota nomli buyuk shodlik kam.

Xadicha o'zi qurumsoq bo'lgan, urush boshlangan keyin yanada bu hislati oshdi deb ta'riflangan. Lekin o'ylab qarasak ona bo'lish osonmi uch bolani boqish kerak ayniqsa urush yillarida. Bu asarda Umri xola obrazi orqali yozuvchi barcha xokisor, mehribon onalarni ta'riflab bergan. Shone'mat o'lishini bilsada bolasi uchun jon-jahdi bilan kurashadi. Uni tuzalib ketishi uchun kim nima desa sinab ko'radi. Umri xolani birdan bir niyati o'g'lini yana sog'lom ko'rish edi. Lekin urush tufayli oziq-ovqat tanqis edi. Umri xola o'g'lini tuzalishi uchun Shoikromning hovlisidagi qulupnayni qo'y sutiga almashtira boshlaydi. Oziq-ovqat kam paytda barcha o'z oilasini, bolalarini o'ylaydi. Shoikrom ham ataylab emas, jahl ustida qulupnay ariqchasiga tok simini tashlab qo'yadi.

Xulosa

Bu asarda bugungi kunda ham asarning g'oyalari muhimdir. Urushlar, inson huquqlarining paymol bo'lishi adolatsizliklar, etnik nizo hamon dunyoning turli burchaklarida davom etmoqda. Hikoyada bizning o'tmishdagi xatolardan saboq olishga, tinchlik va adolat uchun kurashishga, insoniyatning eng oliy qadriyatlarini himoya qilishga chaqiradi. Hozirgi davrda, biz yana shunday qiyinchiliklar va ijtimoiy muammolarga duch kelayotganimizda, bu hikoyada bizga tarixni unutmaslik va har bir insonni hurmat qilish zarurligini eslatib turadi.

Hozirgi kunda bizni tinchlikka, adolatga va gumanizmga bo'lgan ehtiyojni anglashga chaqiradi.

REFERENCES

1. Sinf darsligi oltinchi sinf adabiyoti: Toshkent 2017 -yil 147- 157- bet.
2. Sinf darsligi beshinchi sinf adabiyoti: Toshkent 201-yil 132-135- bet
3. Bahoriddinova Shahzoda " Umum ta'lim maktablarida O'tkir Hoshimov hikoyalari tahlili, "Bitiruv malakaviy ishi, Toshkent 2018
4. Tafakkur.net, Toshkent 2017
5. www.herald.kokanduni.uz